

RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA MAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Aliqulov Komiljon Urol o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi Huquqshunoslik fani o'qituvchisi 94-
462-57-73 komilaliqulov93@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy asosiy prinsiplari, vazifalari va o'ziga xos jihatlari ochib berishga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish orqali ijroiya va vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiya guruhlarini faoliyat samaradorligini oshirish natijasida demokratik jamiyatni izchil rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy hokimiyat organlarini tashkil etish va ular faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining o'ziga xos jihatlari tahlil qilishda, eng avvalo, davlatlarning ma'muriy-hududiy va siyosiy birliklarga bo'linishi hamda markaziy hokimiyat organlari bilan hududlardagi mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning tavsifini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, qoida tariqasida, ikki jihati bilan ajralib turadi: saylanadigan organ (saylanuvchi munitsipal yig'ilish – kengash, assambleya) va ijro organi. Ijro organi yakka tartibda va kollegial tartibda bo'lishi mumkin. Yakka tartibdagi ijro organiga misol qilib mer (Fransiya) yoki burgomistrni (GFR) keltirishimiz mumkin. Kollegial tartibdagi o'zini o'zi boshqaruv shakliga GFR ning ba'zi yerliklaridagi magistratlarni misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin. Passiv saylov huquqidan odatda, 21-25 yoshga to'lgan shaxslar foydalanishadi. Munitsipal kengashga munitsipal xizmatchilari, qarzdor deb topilgan shaxslar saylanishiga yo'l qo'yilmaydi. Munitsipal kengash tarkibida hozirgi kunda ham ishchilar, ayollar, yoshlarning miqdori kamdir. Masalan, Buyuk Britaniyada munitsipal kengashdagi malakali ishchilar ulushi butun deputatlar miqdorining juda kam foizini tashkil qiladi. Malakali ishchilarning ulushi saylash huquqiga ega bo'lgan aholi qatlamidagi o'z ulushidan 20 barobar kamdir. Kengash a'zolarining 54%ni 55 yoshdan oshgan shaxslar, 1/8 qisminigina ayollar tashkil qiladi. Kengashga nomzodini qo'ygan shaxs, shu hududda saylovgacha o'n ikki oy yashagan yoki shu yerda doimiy ishlaydigan, shu hududda joylashgan ko'chmas mulkka ega bo'lishi lozim²⁸.

Munitsipal kengashga saylovlar bo'yicha uchta saylov okrug turi mavjuddir. Bular: bir mandatli, ikki mandatli, ko'p mandatli. Nisbatan ko'p tarqalgan saylov okrugi ko'p mandatli okrug hisoblanadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada graflik kengashiga ovozlar bir mandatli saylov okrugi bo'yicha, okrugda esa bir yoki ko'p mandatli saylov okruglarida saylanadi. Munitsipal kengashga nomzodlar o'z nomzodlarini partiya yoki biror tashkilot, mustaqil vakil sifatida qo'yishmaydi.

²⁸ Махмудов А.А. Ўзбекистон Республикасида маҳаллий вакиллик органларининг назорат фаолиятини такомиллаштириш: Юрид. фан. ... фал. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 17.

AQSH va boshqa ko'pgina davlatlarda, munitsipal kengashga saylovlar nopartiyaviy asosda o'tkaziladi. Bunda barcha nomzodlar "mustaqil" shaxs sifatida harakat qilishadi. Munitsipal kengashlarda partiya fraksiyalari rasman mavjud emas. Ular saylov natijalrini hisoblashda, mojaritar va proporsional tizimning minglab usullaridan foydalanishadi. Fransiyada komunnalardagi komunna aholisi soniga qarab, 2 ta saylov usulidan foydalanishadi. 3500 tagacha aholisi bo'lgan komunnalarda saylovlar mojaritar usulda ikki bosqichda amalga oshiriladi. 3500 ta yoki undan ortiq aholisi bo'lgan komunnalarda ham proporsional, ham mojaritar usuldan foydalanishadi. Birinchi turda nomzodlar ro'yxatida mutlaq, ko'pchilik ovozni olganlar kengashning yarim o'rnini egallashadi, qolganlari proporsional ravishda ro'yxatda qolganlar o'rtasida bo'linadi. Agar birinchi turda mutlaq ko'pchilik ovoz olmasa, saylovlarning ikkinchi turi o'tkaziladi. Ikki tur oralig'ida nomzodlar ro'yxatini birlashtirishga yo'l qo'yiladi. Bunday holatda mutlaq ko'pchilikni olgan nomzodlar ro'yxati kengashdagi yarim o'rinni egal-lashadi, qolgan yarim o'rin boshqa ro'yxatdagilar o'rtasida taqsimlanadi. Departament bosh kengashiga majoritar tizim bo'yicha o'z saylov hududi - kanton ichida ikki tur bo'yicha saylanadi. Regionlarga proporsional tizim bo'yicha birinchi turda umumiy va to'g'ridan-to'g'ri saylanadi. Har bir region departamenti alohida saylov okrugi sifatida namoyon bo'ladi. Bu okrugga har bir partiya o'z nomzodlar ro'yxatini taqdim etadi. Agar har bir nomzodlar ro'yxati regiondagi saylovchilarning 5% dan ko'p ovozni olgan bo'lsa, region kengashida o'z vakiliga ega bo'ladi²⁹.

Germaniyada mahalliy hokimiyat organlarining rivojlanish tendensiyalarini Shimoliy Reyn Vestfaliya o'lkasi misolida o'rgangan olim B.Xamidovning fikricha, Germaniyada mahalliy vakillik organlari deputatligiga nomzodlarning aholi oldida ancha mashhur ekanligi bois saylovchilar siyosiy partiyalarning roliga yetarlicha e'tibor bermaydi. Bunda saylovchilar nomzodning muayyan partiya mansubligiga emas, balki shaxsiy va kasbiy sifatlariga ko'prok e'tibor qaratadi. Baden-Vyurtemberg o'lkasida hatto burgomistrlikka nomzodlarga muayyan partiyalardan o'z nomzodini ko'rsatishni man etadigan qonun qabul qilingan. Ta'kidlash joizki, Germaniyada jamoa kengashlariga bo'lib o'tadigan saylovlar partiya ro'yxati asosida o'tkaziladi. O'z navbatida, kengashga saylangan deputatlar orasidan ular mansub bo'lgan partiyalar o'zlarining fraksiyalarini tashkil etish huquqiga ega bo'ladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, mahalliy kengashlarga saylangan partiyalar fraksiyasi a'zolar soniga qarab o'z ishlarini yuritish uchun shahar kengashidan moliyalashtiriladi.

Belgiyada mahalliy hududlardagi ijroiya hokimiyatning asosiy vakili qirol tomonidan shahar kengashi a'zolari orasidan tayinlanadigan mer hisoblanadi. Kengash, shuningdek agar umumiy kelishuv bo'lsa, shahar kengashi a'zosi bo'lmagan jamoat arbobini ham nomzod sifatida ko'rsatishga haqli.

Aytish joizki, mer nomzodini ko'rib chiqishda asosiy e'tiborni uning shahar kengashiga bo'lib o'tgan saylovlarda g'olib chiqqan siyosiy partiyaning vakili ekanligiga qaratish lozim. Mer, o'z navbatida, kengashga raislik qiladi. Uning muayyan hududdagi

²⁹ Qarang: Баранов Н.А. Лекции по курсу "Административные системы государств Европы" (курс написан на основе двух учебников: Государственная политика и управление. Учебник. В 2-х ч. // Под ред. Л.В.Сморгунова. - М.: РОССПЭН, 2006-2007; Политико-административное управление: Учебник. // Под общ.ред. В.С.Комаровского, Л.В.Сморгунова. - М.: Изд-во РАГС, 2004.)
// http://nicbar.narod.ru/adm_sist_lekzia6.htm.

munitsipalitet rahbari sifatidagi asosiy vazifasi qonunlar va mahalliy kengashning qarorlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilishdir³⁰.

O'z navbatida, u lavozimga tayinlanganidan keyin markaziy hukumat nomidan politsiya va registratura faoliyatini boshqarish hamda tashkil etish vakolatiga ega bo'ladi. Ya'ni, bunda siyosiy partiyalar o'zlarining vakillari orqali nafaqat mahalliy miqyosda ijro hokimiyati, balki vakillik hokimiyati faoliyati ustidan ham nazoratni o'rnatish orqali ular faoliyatida ishtirok etadi.

Ispaniyada munitsipalitetlar hududlarda ommaviy hokimiyatni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Qayd etish joizki, munitsipalitetlarda rahbar organ bo'lib, munitsipal kengashlar maydonga chiqadi.

Uning a'zolari har 4 yilda proporsional tizim asosida bo'lib o'tadigan saylov natijalariga ko'ra shakllantiriladi.

Munitsipal kengashdagi o'rinlar partiyalarning ro'yxatlari asosida saylangan a'zolarga taqdim etiladi. Ispaniyada munitsipalitetlar ancha kichik hududlarda tashkil etilganligi bois kengash tarkibida odatda 8-10 a'zo bo'ladi. Yirik shaharlarda esa 7 tadan 57 tagacha a'zo bo'lishi mumkin. Munitsipalitet merlari odatda biron-bir partiya ko'p ovoz olgan bo'lsa, u tomondan, aksincha biron-bir partiya ko'pchilik ovoz to'plamagan bo'lsa, koalitsion ovoz berish asosida saylanadi. Munitsipalitetlar vakolatlari doirasiga transport, kommunal xizmat, chiqindilarni qayta ishlash, mahalliy xizmatlar sohalari kiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish ma'muriy hududiy bo'linish asosida tashkil qilingan.

AQSH federativ davlat bo'lib, o'z tarkibiga shtatlarni qamrab olgan. O'z navbatida, shtatlarning aksariyati grafliklardan tashkil topgan.

Aholi grafliklarning Kengashini va bir qator mansabdor shaxslar, ya'ni sherif, prokuror, attorney, xazinachi va boshqalarni saylaydi.

Shuningdek, grafliklarda komissionerlar Kengashi ham saylanadi. Ushbu Kengash asosan moliyaviy masalalarni hal qiladi. Grafliklardagi shaharlar o'zlarining boshqaruv tizimiga ega³¹.

AQShdagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari doirasiga quyidagilar kiradi:

jamoat xavfsizligini ta'minlash, mahalliy soliqlar va yig'implarni o'rnatish, mahalliy budjetni qabul qilish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ya'ni maktab ishi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy qurilishi, kommunal xo'jaligi, mahalliy yo'llarni qurish va saqlash, mahalliy mulkni boshqarish.

AQShda mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi asosini quyidagi fundamental prinsiplar tashkil qiladi.

Davlatning mahalliy jamoalarni o'zini o'zi boshqarishga bo'lgan siyosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan majburiyati mavjud.

Unga ko'ra, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan barcha muammolar ularga duch kelgan fuqarolar va ularning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilishi lozim.

³⁰ Хамидов Б.А. Развитие самоуправленческих начал местной власти в современной Германии (на примере федеральной земли Северный Рейн-Вестфалия). Автореферат дисс ... кандидата полит. наук. – Уфа, 2009. – 22 с.

³¹ Фененко Ю.В. Муниципальные системы зарубежных стран: правовые вопросы социальной безопасности / Ю.В. Фененко. – М.: МГИМО-Университет, 2004. – С.61.

O'zini o'zi boshqarishga bo'lgan siyosiy huquqdan foydalanish uchun kuchli qonunchilik bazasi bo'lishi zarur.

O'z navbatida, qonun mahalliy avtonomiya yuqori darajada bo'lishini va aholining qarorlarni qabul qilish jarayonida demokratik tarzda ishtirok etishini hamda mustahkam moliyaviy asoslarni ta'minlashi lozim.

AQShda mahalliy boshqaruvning uchta shakli mavjud.

Mazkur shakllarning ilk ko'rinishi shahar yig'ini bo'lib, uning ildizi Britaniya qonunchiligiga borib taqaladi.

Ayni paytda AQShning shimoliy- sharqiy oltita shtatida mahalliy boshqaruv qayd etib o'tilgan shaklda amalga oshiriladi.

Mazkur boshqaruv tizimining asosiy xususiyati shundaki, unda asosan vakillik demokratiyasiga urg'u beriladi³².

Xorijiy mamlakatlarda davlat hokimiyati organlari faoliyati, ularning huquqiy asoslarini tahlil qilish asnosida davlat hokimiyati vakillik organlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik quyidagi shakllarda amalga oshirishini ko'rish mumkin:

Birinchidan, siyosiy partiyalarning vakillik organlaridagi guruhlar mahalliy miqyosda qabul qilinadigan qarorlarning mazmuniga ta'sir o'tkazish orqali ular faoliyatida ishtirok etadi;

ikkinchidan, mahalliy vakillik organiga bo'lib o'tgan saylovlarda eng ko'p ovoz olgan partiyalar o'zlarining vakillarini shahar kengashi yoki munitsipaliteti raisi (meri) lavozimiga tavsif etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunda siyosiy partiyalar ular orqali mahalliy ijro hokimiyatini shakllantirishga va huquqni qo'llash faoliyatiga ta'sir o'tkazadi;

uchinchidan, mahalliy vakillik organlaridagi partiya fraksiyalari: jamoat xavfsizligini ta'minlash; mahalliy soliqlar va yig'imlarni o'rnatish; mahalliy budjetni qabul qilish va uning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish; ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ya'ni maktab ishi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy qurilishi, kommunal xo'jaligi, mahalliy yo'llarni qurish va saqlash; mahalliy mulkni boshqarish kabi ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalari bo'yicha mahalliy siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

to'rtinchidan, xorijiy mamlakatlarda mahalliy vakillik organlarini tashkil etish va ular faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining yana bir o'ziga xos jihati ushbu ishtirokning huquqiy asoslari turli xil normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topganligidir;

beshinchidan, mamlakatimizda vakillik organlaridagi siyosiy partiyalarning ishtirokini bugungi kunda yetarlicha va samarali deb bo'lmaydi.

Chunki deputatlar bilan ularning nomzodini ko'rsatgan siyosiy partiyalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud emas.

Bundan tashqari, partiyalar mahalliy miqyosda siyosiy partiyalarning hokimiyat organlaridagi vakillari faoliyatini nazorat qilish va ish samaradorligi monitoringini o'tkazish borasida yetarlicha tashkiliy-huquqiy vositalarga ega emas.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda vakillik organlaridagi siyosiy partiyalarning ishtiroki samaradorligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va

³² Трофимова И. Трансформация отношений центральной и местной власти в процессе децентрализации управления (опыт европейских стран) / Зарубежный опыт государственного управления и международные отношения. 2011. – С.87–88 // http://ars-administrandi.com/article/Trofimova_2011_2.pdf.

shu asosda tegishli tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish yurtimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar va qonun ijodkorlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2017 yil 8 dekabr.
4. Azizov N. XX asrning birinchi choragida Turkiston siyosiy partiyalari dasturlarida davlat va huquq masalalari // Yuridik fanlari doktori (DSc) ... diss. avtoref. –T., 2018. – 73 b.
5. Azizxo'jayev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. –Toshkent: Sharq, 1997. – 112 b.
6. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – Toshkent: Akademiya, 2001. – 110 b.
7. Afanasyeva O.V., Kolesnikov YE.V., Komkova G.N., Malko A.V. Konstitutsionnoye pravo zarubejnix stran / Pod obsh. red. d. yu. n., prof. A. V. Malko. – M.: Norma, 2004. – S. 320.
8. [http:// www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
9. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. <http://www.huquqburch.uz>